



## YOSHLAR TILIDA NEOLOGIZMLARNING PAYDO BO‘LISHI VA ULARNING LINGVISTIK TAHLILI

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi*

*Zaynobidinova Irodaxon Mardonovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek yoshlar tilida neologizmlarning paydo bo‘lish jarayonlari, ularning asosiy manbalari, yasalish usullari va funksional-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Yoshlar nutqidagi neologizmlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘luvchi ijtimoiy-tarixiy va lingvistik omillar aniqlanadi, ularning mavzuiy guruhlari tasniflanadi. Shuningdek, neologizmlarning adabiy til me‘yorlariga munosabati va til madaniyatiga ta’siri masalalari ham yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** neologizm, yoshlar tili, sleng, internet leksikasi, so‘z yasalishi, globallashuv, til o‘zgarishi, leksik qatlam.

**Аннотация:** В статье анализируются процессы возникновения неологизмов в языке современной узбекской молодежи, их основные источники, способы образования и функционально-стилистические особенности. Определяются социально-исторические и лингвистические факторы, способствующие появлению неологизмов в речи молодежи, классифицируются их тематические группы. Также освещаются вопросы отношения неологизмов к нормам литературного языка и их влияние на культуру речи.

**Ключевые слова:** неологизм, молодежный язык, сленг, интернет-лексика, словообразование, глобализация, языковые изменения, лексический пласт.

**Abstract:** This article analyzes the formation processes of neologisms in the language of modern Uzbek youth, their primary sources, methods of derivation, and



*functional-stylistic characteristics. The socio-historical and linguistic factors driving the emergence of neologisms in youth speech are identified, and their thematic groups are classified. Furthermore, the relationship between neologisms and literary language norms, as well as their impact on speech culture, is discussed.*

**Keywords:** *neologism, youth language, slang, internet lexis, word formation, globalization, language change, lexical layer.*

Til jamiyat bilan birga yashaydigan, doimiy rivojlanib va yangilanib boruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Tilning barcha sathlari orasida uning leksik qatlami jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga eng tez va sezgir munosabat bildiradi. Leksika – tilning eng harakatchan, eng o'zgaruvchan qismi bo'lib, unda jamiyat hayotidagi har qanday yangilik, kashfiyot, voqea-hodisa o'z aksini topadi. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar tilida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yoshlar tili – milliy tilning alohida funksional varianti bo'lib, u o'zining leksik-semantik, uslubiy va pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yoshlar nutqi tez o'zgaruvchanligi, yangi so'z va iboralarga boyligi, emotsional-ekspressiv jihatdan to'liqligi bilan xarakterlanadi. XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng yoyilishi, globallashuv jarayonlarining kuchayishi natijasida yoshlar nutqida misli ko'rilmagan darajada ko'plab neologizmlar paydo bo'lmoqda va ular tez surhatlar bilan ommalashmoqda. Yoshlar tilida neologizmlarning paydo bo'lishi va ularning lingvistik tahlili masalasi hozirgi kunda o'zbek tilshunosligining eng dolzarb muammolaridan biridir. Chunki:

- bu jarayon tilning rivojlanish tendensiyalarini, ichki imkoniyatlarini ko'rsatadi;
- yoshlar nutqida paydo bo'layotgan ko'plab so'zlar asta-sekin adabiy tilga kirib kelmoqda;
- ayrim neologizmlar tilimizning "ifloslanishi"ga, adabiy til me'yorlarining buzilishiga sabab bo'lmoqda;
- neologizmlarni o'rganish til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, yoshlar dunyoqarashi va qadriyatlarining o'zgarishini tushunishga yordam beradi.



Ushbu tezisning asosiy maqsadi – zamonaviy o‘zbek yoshlar tilida neologizmlarning paydo bo‘lish jarayonlarini har tomonlama tadqiq etish, ularning asosiy manbalari va yasaliş usullarini aniqlash, shuningdek, ularning funksional-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Yoshlar tilida neologizmlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘luvchi asosiy omillarni aniqlash;
2. Neologizmlarning asosiy manbalarini tasniflash;
3. So‘z yasalişining mavjud va yangi usullari asosida yaratilgan neologizmlarni tahlil qilish;
4. Neologizmlarning mavzuiy guruhlarini ajratish;
5. Neologizmlarning funksional-uslubiy xususiyatlarini yoritish;
6. Ularning adabiy til me‘yorlariga munosabatini baholash.

Tadqiqot obyekti – zamonaviy o‘zbek yoshlar tili (14-30 yoshdagi o‘zbek yoshlarining og‘zaki va yozma nutqi, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlari). Tadqiqot predmeti esa – yoshlar tilida qo‘llanilayotgan neologizmlar, ularning paydo bo‘lish jarayonlari, manbalari, yasaliş usullari va funksional xususiyatlari.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi: kuzatuv metodi, tavsifiy metod, komponent tahlil metodi, sotsiolingvistik so‘rov, statistik tahlil, qiyosiy-tarixiy metod.

Yoshlar tilida neologizmlarning paydo bo‘lishiga bir qancha obyektiv va subyektiv omillar sabab bo‘lmoqda. Bu omillarni shartli ravishda ikki katta guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy-tarixiy omillar va lingvistik omillar.

***Ijtimoiy-tarixiy omillar.*** Mustaqillik yillarida jamiyatimizning barcha sohalarida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu o‘zgarishlar, shubhasiz, tilga, xususan, yoshlar nutqiga ham ta‘sir ko‘rsatdi. Yangi ijtimoiy-siyosiy tushunchalar, kasb-korlar, mutaxassisliklar paydo bo‘ldi: *menejer, marketolog, bloger, startapchi* va boshqalar. Axborot texnologiyalari, internet, mobil aloqa vositalarining jadal rivojlanishi natijasida ko‘plab yangi tushunchalar paydo bo‘ldi: *gadjet, smartfon,*



*messenjer, xeshteg, selfi, skrinshot* va boshqalar. Globallashuv jarayoni natijasida ingliz tilining boshqa tillarga, jumladan, o'zbek tiliga tahsiri kuchaydi. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok, YouTube kabi ijtimoiy platformalar yoshlar nutqiga kuchli tahsir ko'rsatmoqda: *layk, folov, blog, xayp, chellenj, trend* kabi so'zlar keng tarqaldi.

**Lingvistik omillar.** Tilning tejamlilik tendensiyasi natijasida ko'plab qisqartmalar, abbreviaturalar paydo bo'ladi: *info (informatsiya), komp(kompyuter), sps (raxmat)*. Yoshlar nutqining emotsional-ekspressiv ifodaga bo'lgan ehtiyoji ham yangi so'zlar yaratishga turtki bo'ladi: *zashib (ajoyib), kruto (juda chiroyli), bomba (juda yaxshi)*. Tilning analogiya va differentsiatsiyaga intilishi ham muhim omillardan biridir.

Yoshlar tilidagi neologizmlarni ikki asosiy manbaga: ichki manbalar va tashqi manbalarga ajratish mumkin.

**Ichki manbalar.** O'zbek tilining so'z yasash qoliplari asosida yangi so'zlar yaratish:

- Affiksatsiya: *xayp+chi, blog+er*.
- So'z qo'shilishi: *internet+do'kon, onlayn+dars, kiber+sport*.
- Qisqartirish: *IT, MTM*.
- Semantik derivatsiya (mavjud so'zlarga yangi mahno yuklash): *baza-asos, tushuncha; chil – dam olish, hordiq chiqarish*.

**Tashqi manbalar.** Neologizmlarning 70-80 foizi ingliz tilidan o'zlashgan:

- To'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish: *layk, folov, selfi, blog, trend*.
- Morfologik moslashtirish: *layklash, folov qilish, chillish*.
- Rus tilidan: *prikol, klyovo, zashib, tusovka*.
- Koreys tilidan: *oppa, unni (koreys seriallari tahsirida)*.

Yoshlar nutqidagi neologizmlarni mavzuiy jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Internet va texnologiyalar bilan bog'liq neologizmlar: *gadjet, devays, smartfon, brauzer, sayt, selfi, post, layk, komment, mem, trolling*.



2. Kasb-kor va faoliyat turlari bilan bog'liq neologizmlar: *bloger, tiktoker, menejer, marketolog, SMM-menejer, dizayner, programist, kibersportsmen.*

3. His-tuyg'u, holat va baho ifodalovchi neologizmlar: *kayf (zavq), xayp (shov-shuv), rofl (hazil), krinj (uyat), zashib (ajoyib), krasivo (chiroyli), bomba (juda yaxshi), grust (hafa), agr (jahl).*

4. Shaxs xususiyatlarini ifodalovchi neologizmlar: *krinjoviy (uyatli ish qiladigan), roflchi (hazilkash), nub (tajribasiz), chiter (aldovchi), xeyter (yomon ko'ruvchi).*

5. Kundalik hayot va turmush bilan bog'liq neologizmlar: *shopping (xarid), fud-kort (ovqatlanish maydoni), dress-kod (kiyinish qoidalari), lokdaun (cheklash), karantin.*

Yoshlar nutqidagi neologizmlar bir qancha vazifalarni bajaradi:

- Nominativ vazifa – yangi tushuncha, predmet va hodisalarni nomlash: *smartfon, planshet, gadjet.*

- Ekspressiv vazifa – nutqqa emotsional-ekspressiv bo'yoq berish: *zashibis, bomba, kayf.*

- Kommunikativ vazifa – muloqotni tezlashtirish, fikrni ixcham ifodalash: *sps (rahmat), ok (ha, mayli).*

- Ijtimoiy-psixologik vazifa – “bir guruhga mansublik”ni ifodalash, kattalar olamidani ajralib turish.

- O'yin vazifasi – til o'yini, ijodkorlik natijasi: *krinj (uyat).*

Yoshlar tilidagi neologizmlarning adabiy til mehyorlariga munosabati ikki xil:

Ijobiy jihatlari: tilning lug'at tarkibini boyitadi; tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi; yangi tushunchalarni tez va qulay nomlash imkonini beradi.

Salbiy jihatlari: adabiy til mehyorlarining buzilishiga olib keladi; tilning begona elementlar bilan “ifloslanishi”ga sabab bo'ladi; avlodlar orasidagi til to'sig'ini kuchaytiradi.



Xulosa qilib aytganda, yoshlar tilida neologizmlarning paydo bo'lishi obyektiv lingvistik jarayon bo'lib, u tilning doimiy rivojlanish va yangilanish qonuniyatlari bilan bog'liq. Bu jarayonni to'liq to'xtatish yoki ta'qiqlash mumkin emas. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'zbek yoshlar tilidagi neologizmlar asosan quyidagi manbalar hisobiga shakllanmoqda:

- internet va ijtimoiy tarmoqlar (40-45%);
- chet tillardan, asosan ingliz tilidan o'zlashtirish (30-35%);
- mavjud so'zlarga yangi ma'no yuklash (15-20%);
- o'zbek tilining so'z yasaliş imkoniyatlari (5-10%).

Yoshlar nutqidagi neologizmlarning aksariyati (70% ga yaqini) vaqt o'tishi bilan iste'moldan chiqib ketadi, faqat bir qismigina (taxminan 10-15%) adabiy til tomonidan qabul qilinib, uning lug'at tarkibida mustahkamlanadi. Kelgusida neologizmlarning lug'atlarini tuzish, ularning yasaliş modellarini aniqlash, adabiy tilga kirib kelayotgan neologizmlarni me'yorlashtirish masalalari dolzarb bo'lib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 288 b.
2. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 232 b.
3. Rahmatullaev SH. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
4. Yo'ldoshev M. O'zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 320 b.
5. Crystal D. Language and the Internet. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University press, 2006. – 316 p.
6. O'zbek yoshlarining ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot materiallari. – Telegram messenjeri, Instagram va TikTok ijtimoiy tarmoqlari. – 2023-2026 yy.